

## BARCHA DARAJADAGI BOSHLIQ (KOMANDIR) LARNING XAVF GURUHIDAGI XODIMLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

*Umarxo'jayev Asadbek Shuhratjon o'g'li  
IIV Akademiyasi 2-o 'quv kursi 209-guruh kursanti  
O'quv-saf qismi 2-o 'quv kursi 3- otryad komadri  
Mayor B.S.Salimov*

*Ilmiy rahbar – o'quv-saf qismi 2-o 'quv kursi 3-otryad komadrining  
TIV o'rinnbosari leytenant Sh.X.Ne'matjonov*

**Аннотация:** В данной статье рассматривается деятельность по индивидуальной работе органов внутренних дел с сотрудниками, входящими в группу риска, текущие проблемы и недостатки, причины и условия попадания сотрудников в эту группу, а также реформирование системы нравственно-воспитательной работы с сотрудниками посредством внедрение новых pragmatических методов, речь идет о формировании умений и компетенций.

**Ключевые слова:** Начальник (начальники) всех уровней, группа риска, недисциплинированность, нездоровая обстановка, неблагополучное семейное положение, воровская жизненная ситуация, учет, духовно-воспитательные мероприятия, патриотизм, верность присяге

**Annotation:** This article describes the activities of individual work with employees in the risk group in internal affairs bodies, current problems and shortcomings, the reasons and conditions for employees to enter this group, as well as reforming the system of moral and educational work with employees through the introduction of new pragmatic methods. It is about formation of skills and competence.

**Key words:** Chief (commanders) at all levels, risk group, indiscipline, unhealthy environment, troubled family situation, thief's life situation, keeping accounts, spiritual-educational measures, patriotism, loyalty to the oath.

**Anotatsiya:** Mazkur maqola Ichki ishlar organlarida xavf guruhidagi xodimlar bilan yakkka tartibda ishlash faoliyati, dolzarb muommolar va kamchiliklar, xodimlarning ushbu guruhga kirib qolish sabab va sharoitlari hamda yangi pragmatik usullarni joriy qilish orqali xodimlar bilan ma'naviy-ma'rifiy ishlash tizimini isloh qilib, ularda ko'nikma va malakani shakllantirish haqida boradi.

**Kalit so'zlar:** Barcha darajadagi boshliq (komandirlar), xavf guruhi, intizom buzilishi, nosog'lom muhit, notinch oilaviy ahvol, o'g'ir hayotiy vaziyat, hisoblar yuritilishi, ma'naviy-ma'rifiy chora-tadbirlar, vatanparvarlik, qasamyodiga sodiqlik.

Butun dunyoda globallashuv jarayonlari natijasida har bir davlatda o'ziga xos islohatlar amalga oshirilmoqda. Xususan, yurtimiz O'zbekistonda yuqoridagi jadallahuvni inobatga olib, ijtimoiy sohani keng qamrovda rivojlantirib jamoat tartibini saqlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jamoat tartibini saqlash sohasidagi asosiy islohotlar Ichki ishlar Vazirligi tizimida keng amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev : “ Agar davlat tayanadigan asosiy ustun qonun bo'lsa, uning kuchini amalda namoyon etadigan eng samarali tizim- Ichki ishlar organlaridir” -, deb bejizga ta'kidlamaganlar.

Darhaqiqat, islohotlarni 1-navbatda kadrlar tayyorlash, uning malakasini oshirish bosqichidan boshlansa, islohotlar qamrov darajasini kengaytirishga turtki bo'ladi. Xususan, barcha darajadagi boshliq (komandir)lar – tarkibiy va hududiy bo'linmalar boshliqlari (komandirlari) va ularning o'rribbosarlari, shuningdek, mazkur bo'linmalar tarkibidagi barcha bo'lim, bo'linma (saf) boshliqlari (komandirlari), ularning o'rribbosarlari va guruh rahbarlarining faoliyatida bir qator normativ-huquqiy hujjatlar, Intizom kodeksi, qabul qilinishiga qaramay, ularning faoliyatida doimiy ravishda intizom buzilishiga yo'l qo'yadigan, huquqbuzarlik, jinoyat va korrupsiyaga moyil bo'lgan, xavf guruhidagi xodimlar bilan ishlash tizimi hamon pastligicha qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2021 yil 21 oktabrdagi 400-son buyrug'iga 1-ilova: Ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida NIZOM da xavf guruhidagi xodimlarga quyidagicha ta'rif bergen ya'ni: “xavf guruhidagi xodimlar – xizmat vazifalarini bajarishda bir vaqtning o'zida yoki bir oy muddat davomida ketma-ket uch va undan ortiq kamchiliklarga yo'l qo'ygan, xizmat hamda xizmatdan tashqari paytda ikki va undan ortiq qo'pol nosog'lom yoki axloqqa zid harakatlar sodir etgan, fuqarolar bilan ziddiyatli munosabatlarga kirishishi natijasida bir oy davomida uch va undan ortiq asosli murojaatlar kelib tushgan, bir oy muddat davomida boshliq (komandir)lar bilan asossiz ravishda uch va undan ortiq ziddiyatli vaziyatlar keltirib chiqarib, ma'naviy-ruhiy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatgan, shuningdek, oilada yakka boquvchi bo'lganligi, ikki va undan ortiq voyaga yetmagan yoki bolaligidan nogiron bo'lgan farzandlarini yolg'iz o'zi tarbiyalayotgan, yaqin qarindoshlari (turmush o'rtog'i, tug'ishgan farzandlari, ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari, qaynota hamda qaynonasi) orasida og'ir kasallikka chalinganlari bo'lgan, oilasi notinch ahvoldagi, og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan xodimlar ”.

Hozirgi paytda barcha darajadagi boshliq (komandir)lar – tarkibiy va hududiy bo'linmalar boshliqlari (komandirlari) va ularning o'rribbosarlari, shuningdek, mazkur bo'linmalar tarkibidagi barcha bo'lim, bo'linma (saf) boshliqlari (komandirlari), ularning o'rribbosarlari va guruh rahbarlari xavf guruhidagi xodimlar bilan faqat:

- Yakka tartibdagagi profilaktik suhbat
- Rasmiy ogohlantirish

-Qonunlarga xurmat ruhida tarbiyalash  
-Alohidha xisob jurnallar yuritish  
-Oilaviy sharoitini o'rganish  
-Intizom buzilishini shaxsiy tarkib oldida muhokama qilish  
-Intizomiy kengashga intizomiy jazo qo'llash to'g'risida taqdimnomalar kiritish kabi ma'naviy – ma'rifiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Yana bir dolzarb muommo barcha darajadagi boshliq(komandirlar) xavf guruhidagi xodimlar bilan ishlashda faqat yuzaki ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirish, xodimning qachon, qanday tartibda va kimlar tomonidan xavf guruhidan chiqish masalasi aniq normativ-huquqiy hujjatlarda yoritilmagan. Xavf guruhidagi xodimlarda Vatanga muhabbat, xizmat qasamyodiga sodiqlik, mardlik, Vatanparvarlik xislatlarini singdirishda, ichki ishlar intizom kodeksiga riosa qilish, xizmat intizomi hamda huquqiy ongni shakllantirishda bir qator qiyinchiliklar paydo bo'lmoqda.

Xodimlarda doimiy ravishda vatanparvarlik ruhidagi tadbirlar ya'ni ona–Vatanga muhabbat, qasamyodiga hamda xizmat burchiga sadoqat tuyg'ularini shakllantirish orqali ularda ma'naviy dunyoqarashni yuksaltirish, shuningdek, har qanday vaziyatda jamoat xavfsizligi va qonuniylikni ta'minlash, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq vazifalarni vijdonan hamda sidqidildan bajarishga tayyorgarligini oshirish hamda mustahkamlashga qaratilgan tadbirlarni tashkil etib paydo bo'layotgan muommolarni bartaraf etish mumkin. Xodimlar doimiy ravishda fuqorolar bilan muloqotda bo'lganligi uchun ularda axloqiy-psixologik tadbirlar – yuksak odob-axloq va ruhiy barqarorlikni, shuningdek. xizmat va kundalik hayotda huquqbazarliklarning har qanday ko'rinishlariga, shu jumladan korrupsiyaga nisbatan murosasizlik kayfiyatini shakllantirish, fuqarolar bilan muloqot jarayonida kasbiy muomala madaniyatiga riosa qilgan holda har qanday vaziyatda o'zini ichki ishlar organlari xodimi degan yuksak nomga munosib ravishda namoyon etish, jamoada ishchanlik va ijobiy munosabat muhitini yaratish, o'zaro hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan tadbirlar o'tkazishda faqat ma'ruzalar bilan cheklanmasdan balki, amaliy treninglar hamda ommaviy axborot vositalari orqali keng qamrovli ishlarni amalga oshirish darkor. Shuni aytish joizki, ichki ishlar organlari xodimlari bilan olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlardan ko'zda tutilgan asosiy maqsadlar quyidagilardan iborat: xizmat intizomi, qonuniylik va inson huquqlariga qat'iy amal qilgan holda xizmat vazifalari samarali ijro etilishini ta'minlash; yosh xodimlarda kasbiy ko'nikma va malakan shakllantirish uchun ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va o'tkazishda individual yondashuvni ta'minlash; yurtimizda yashovchi millat va elatlarning urf-odatlari, an'analari, tili, dini, madaniyati, tarixiga hurmatni shakllantirish; xodimlarning fuqarolar bilan, shuningdek, o'zaro kasbiy muloqoti hamda madaniyati darajasini oshirish va professional muloqotga kirishish sifatlarini shakllantirish; jamoalarda sog'lom ma'naviy-ruhiy muhit barqarorligini

ta'minlash hamda xodimlarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligini oshirish yuzasidan psixologik kuzatuvni yo'lga qo'yish; xodimlarning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish va o'z ustida muntazam ishslashni tashkillashtirish, bu borada jamoat tashkilotlari va keng jamoatchilik imkoniyatlaridan unumli foydalanish; aholi o'rtasida ichki ishlar organlari xodimlari to'g'risida ijobiy fikrni shakllantirish orqali ularga nisbatan hurmat hissini oshirish.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. 20.01.2023 yildagi PQ-10 "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishslashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"
2. 29.11.2017 yildagi PQ-3413 "Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishslash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"
3. 2018 yil 23 avgustdagagi PQ-3919-sod "ichki ishlar organlari boshqaruv, nazorat va shaxsiy tarkib bilan ishslashning samarali tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"
4. 2021 yil 21 oktabrdagi 400-sod buyrug'i "Ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida NIZOM"
5. 2021 yil 2 apreldagi PQ-5050 "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"